

Yuridik shaxslar xodimlarini (yuridik shaxs (yuridik shaxsning transport bo`linmasi (xizmati) rahbari, tashish jarayonini tashkillashtirishga javobgar bo`lgan yuridik shaxs (yuridik shaxsning transport bo`linmasi (xizmati) rahbarining o`rinbosari va tashishlar xavfsizligini ta`minlash masalalari bo`yicha mutaxassisni) attestatsiyadan o`tkazish O`zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligining Attestatsiya komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Yuklarni avtomobil transportida tashish bilan shug`ullanayotgan xususiy tadbirkorlarni attestatsiyadan o`tkazish Komissiya tomonidan va/yoki ularning xohishiga ko`ra Agentlik hududiy boshqarmalarining Attestatsiya komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Attestatsiya uchun [savollar](#) yuklar, yo`lovchilar va bagajni avtomobil transportida tashish qoidalarini, tashishlar xavfsizligini ta`minlashga doir, ularni bajarmaganlik uchun javobgarlikka tortish choralari bilishni aniqlash zaruratidan kelib chiqib shakllantiriladi. Shuningdek, yo`lovchilar va yuklarni avtomobil transportida xalqaro tashishlar bilan shug`ullanayotgan tashuvchi korxonalarining xodimlari hamda yuklarni avtomobil transportida xalqaro tashishlar bilan shug`ullanayotgan xususiy tadbirkorlar xalqaro avtomobilda tashishlar sohasida O`zbekiston Respublikasining xalqaro konvensiyalari, shartnomalari va bitimlari me`yorlarini, chegaralarni kesib o`tish qoidalarini, xalqaro qonun hujjatlari me`yorlaridan tafovut qilgan hollarda qabul qilinadigan, transport vositalarining vazn va o`lcham parametrlariga qo`yiladigan talablar va taomillarni, "Xalqaro avtomobilda tashishlarni amalga oshiradigan transport vositalari ekipajlarining ishiga taalluqli bo`lgan Yevropa bitimi (ESTR)"ga ko`ra xalqaro avtomobilda tashishlarni amalga oshiradigan haydovchilarning mehnat qilish va dam olish rejimiga qo`yiladigan talablarni va hokazolarni ham bilishlari kerak.

Attestatsiyadan o`tish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- erkin shakldagi ariza;
- [Nizomning 1-ilovaga muvofiq shakl bo`yicha anketa](#);
- avtomobil sohasi ixtisosligi bo`yicha oliy ma`lumot to`g`risidagi diplom nusxasi;
- mehnat daftarchasi va tegishli lavozimga tayinlash haqidagi buyruq nusxalari.

Anketa yuridik shaxs xodimi yoki xususiy tadbirkor tomonidan to`ldirilishi kerak. Anketaning barcha savollariga to`liq va batafsil javoblar berilishi lozim, anketaning birorta ustuni to`ldirilmagan holda qoldirilmasligi kerak. Bitta bo`lsa ham to`ldirilmagan ustun mavjud bo`lgan taqdirda, butun anketa to`liq to`ldirilmagan deb hisoblanadi va qo`shimcha ishlov berish uchun qaytariladi.

Zarurat bo`lganda Komissiya talabiga binoan anketa savollariga doir batafsil ma`lumotni kiritish va attestatsiyadan o`tadigan shaxsning qoniqarli ishbilarmonlik obro`sinı tasdiqlash uchun anketaga qo`shimcha varaqlar ilova qilinishi lozim.

Hujjatlar bevosita Komissiyaga taqdim etiladi yoki pochta orqali ularning olinganligi to`g`risidagi xabarnoma bilan yuboriladi.

Hujjatlar Komissiya kotibi tomonidan ro`yxatga ko`ra qabul qilinadi, uning bir nusxasi yuridik shaxs xodimi yoki xususiy tadbirkorga hujjatlarni qabul qilish sanasi to`g`risida belgi bilan yuboriladi (topshiriladi).

Taqdim etilgan hujjatlar lozim darajada rasmiylashtirilmagan taqdirda yoki ular to`liq hajmda taqdim etilmaganda Komissiya yuridik shaxs xodimi va xususiy tadbirkorni attestatsiyaga qo`yishga rad javobini berishga haqli.

Taqdim etilgan hujjatlarga oid e`tirozlar bo`lmagan taqdirda ariza taqdim etgan yuridik shaxs xodimi yoki xususiy tadbirkor attestatsiyaga qo`yiladi.

Uzrli sabablarsiz ikki marta ketma-ket kelmagan attestatsiyaga da`vogar yuridik shaxs xodimi yoki xususiy tadbirkor attestatsiyaga qo`yilganlarning ro`yxatidan chiqariladi, bunda u taqdim etgan hujjatlar qaytarib beriladi.

Manba: [www.autotrans.uz](http://www.autotrans.uz)